


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2021-yil yanvar-sentabr oyi uchun dastlabki ma'lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yil yanvar-sentabr oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 791,5 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 131,1 mln.AQSh dollariga ko'paydi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar- sentabr, mln.AQSh dollari)**

Ma'lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 356,0 mln.AQSh dollariga (17,9 % ga ko'paydi) va import hajmi 435,5 mln.AQSh dollariga (21,5 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 79,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2021- yil yanvar- sentabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	223,5	148,8	74,7	28,2
Xitoy Xalq Respublikasida	198,0	53,8	144,2	25,0
Qozog'iston	84,9	35,4	49,5	10,7
Turkiya	76,1	24,8	51,3	9,6
Qirg'iz Respublikasi	51,9	46,4	5,5	6,6
Hindiston	14,2	0,7	13,6	1,8
Belarus	12,9	1,8	11,1	1,6
Ukraina	12,3	7,2	5,1	1,6
Polsha	11,6	6,0	5,6	1,5
Germaniya	11,3	2,2	9,1	1,4

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 76 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (28,2 %), Xitoy Xalq Respublikasida (25,0 %), Qozog'istonda (10,7 %), Turkiyada (9,6 %), Qirg'iz Respublikasida (6,6 %), Hindiston (1,8 %) va Ukraina (1,6 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan oltita davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (223,5 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (198,0 mln.AQSh.dollari), Qozog'iston (84,9 mln.AQSh.dollari), Turkiya (76,1 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (51,9 mln.AQSh.dollari) va Hindiston (14,2 mln.AQSh.dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 14 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	149324,6	162609,3	223461,9
Eksport	92702,9	99113,7	148783,1
Import	56621,6	63495,7	74678,8
Saldo	36081,3	35618,0	74104,3
Xitoy Xalq Respublikasi	189215,6	150647,5	197987,1
Eksport	32546,8	25691,3	53777,7
Import	156668,9	124956,2	144209,4
Saldo	-124122,1	-99264,9	-90431,7



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Qozog'iston	61836,0	81084,4	84900,7
Eksport	27532,7	38470,3	35441,1
Import	34303,2	42614,1	49459,6
Saldo	-6770,5	-4143,8	-14018,5
Turkiya	106177,7	39490,4	76101,7
Eksport	14839,2	11452,9	24777,7
Import	91338,5	28037,5	51324,0
Saldo	-76499,4	-16584,6	-26546,3
Qirg'iziston Respublikasi	67956,1	94772,9	51948,1
Eksport	64981,6	89122,3	46402,7
Import	2974,5	5650,6	5545,4
Saldo	62007,1	83471,7	40857,3
Hindiston	9953,7	8756,7	14221,2
Eksport	1148,4	227,1	656,1
Import	8805,3	8529,6	13565,1
Saldo	-7656,9	-8302,6	-12909,0
Belarus	3637,4	2179,0	12900,3
Eksport	1348,3	1685,2	1760,7
Import	2289,1	493,8	11139,5
Saldo	-940,8	1191,5	-9378,8
Ukraina	11868,3	8660,6	12284,5
Eksport	5732,5	6677,2	7197,1
Import	6135,8	1983,4	5087,4
Saldo	-403,3	4693,8	2109,7
Polsha	8118,6	6842,6	11638,9
Eksport	2366,9	5098,0	5994,3
Import	5751,7	1744,6	5644,6
Saldo	-3384,8	3353,3	349,7

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Germaniya	20203,1	14484,4	11318,3
Eksport	4524,7	3263,1	2181,5
Import	15678,4	11221,2	9136,9
Saldo	-11153,8	-7958,1	-6955,4
Koreya Respublikasi	16617,2	13206,3	8446,5
Eksport	258,2	198,1	299,0
Import	16359,0	13008,2	8147,5
Saldo	-16100,9	-12810,1	-7848,5
Turkmaniston	2912,1	4332,0	8355,1
Eksport	757,1	2510,2	2527,2
Import	2155,0	1821,9	5828,0
Saldo	-1397,9	688,3	-3300,8
Tayvan	1382,4	963,9	6174,2
Eksport	214,5	0	42,7
Import	1167,9	963,9	6131,5
Saldo	-953,4	-963,9	-6088,8
Italiya	4985,9	3924,3	6111,9
Eksport	482,9	1367,8	867,0
Import	4503,0	2556,5	5244,9
Saldo	-4020,0	-1188,6	-4378,0
Eron Islom Respublikasi	5194,6	2318,2	5914,2
Eksport	1003,0	529,9	1413,8
Import	4191,6	1788,2	4500,4
Saldo	-3188,6	-1258,3	-3086,6
Fransiya	645,7	3561,5	5630,0
Eksport	105,4	0	0
Import	540,3	3561,5	5630,0
Saldo	-434,8	-3561,5	-5630,0

Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
Tojikiston	1291,7	4818,5	4962,1
Eksport	655,9	3615,2	3774,6
Import	635,8	1203,3	1187,5
Saldo	20,1	2411,8	2587,1
Malayziya	4413,2	7290,2	4767,9
Eksport	0	0	0
Import	4413,2	7290,2	4767,9
Saldo	-4413,2	-7290,2	-4767,9
Afg'oniston	352,9	2094,3	3581,5
Eksport	352,9	2094,3	3581,5
Import	0	0	0
Saldo	352,9	2094,3	3581,5
Portugaliya	1421,6	1006,7	3457,8
Eksport	1421,6	964,0	3266,8
Import	0	42,7	191,0
Saldo	1421,6	921,3	3075,8

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-sentabr oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 50,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 11,3 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-sentabr, % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yil yanvar-sentabr oyida 2020- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (30,0 % ga) va jami TSA dagi ulushi 49,4 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-sentabr)

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 443 tani tashkil etib, ular tomonidan 356,0 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020- yilning mos davriga nisbatan 17,9 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,1 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (72,4 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (18,0 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunalar (2,1 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- sentabr, ulushi, % da)





- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar- sentabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	356,0	248,0	108,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	64,0	53,1	10,9	18,0	21,4	10,1
Qora metalar	3,0	2,6	0,4	0,8	1,0	0,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,6	4,2	0,4	1,3	1,7	0,4
Sanoat tovarlari	257,7	172,8	84,9	72,4	69,7	78,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	7,4	6,3	1,1	2,1	2,5	1,0
Xizmatlar	10,4	7,7	2,7	2,9	3,1	2,5
Boshqalar	8,9	1,3	7,6	2,5	0,6	7,0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-sentabr, % va ulushi,)




2021- yilning yanvar-sentabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 41,8 %), Xitoy Xalq Respublikasi (15,1 %), Qirg'iz Respublikasi (13,0 %), Qozog'iston (10,0 %), Turkiya (7,0 %), Ukraina (2,0 %) va Polsha (1,7 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,6 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2020- yining mos davriga nisbatan 43 davlatdan 50 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-sentabr,% da)**



- *Rossiya Federatsiyasi*
- *Xitoy Xalq Respublikasi*
- *Qirg'iz Respublikasi*
- *Qozog'iston*
- *Turkiya*
- *Ukraina*

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-sentabr)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Rossiya Federatsiyasi	162609,3	148783,1	175,4	91,5	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	150647,5	53777,7	4,6 m	35,7	2	2
Qirg'iz Respublikasi	94772,9	46402,7	145,8	49,0	3	3
Qozog'iston	81084,4	35441,1	2,9 m	43,7	4	4
Turkiya	39490,4	24777,7	2,6 m	62,7	5	5
Ukraina	8660,6	7197,1	151,1	83,1	10	6
Polsha	6842,6	5994,3	2,8 m	87,6	13	7
Tojikiston	4818,5	3774,6	7,3 m	78,3	14	8
Afg'oniston	2094,3	3581,5	5,9 m	171,0	23	9
Portugaliya	1006,7	3266,8	70,8	3,2 m	31	10
Turkmaniston	4332,0	8355,1	5,7 m	192,9	15	11
Germaniya	14484,4	11318,3	3,2 m	78,1	6	12
Misir	0,0	2144,2	100,0	100,0	-	13
Belarus	2179,0	12900,3	161,6	5,9 m	21	14
Moldovo Respublikasi	912,1	1491,0	87,2	163,5	34	15
Eron	2318,2	5914,2	2,3 m	2,5 m	20	16
Guruziya	695,4	1108,2	2,6 m	159,4	39	17
Belgiya	230,4	1018,5	7,9 m	4,4 m	42	18
Italiya	3924,3	6111,9	8,1 m	155,7	16	19
Pokiston	2550,4	1217,7	21,6 m	47,7	19	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 10425,4 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,9 % ini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga ko'payganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 257.7 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 72,4 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 65,2 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-sentabr)

2021- yil yanvar-sentabr oyida import hajmi 435,5 mln.AQSh dollarini va 2020- yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (36,1 %), boshqalar (17,3 %) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 77,0 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 435,5 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 mln.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-sentabr)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	435,5	152,9	282,6	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	72,1	46,4	25,7	16,5	30,3	9,1
Qora metallar	43,5	26,7	16,8	10,0	17,5	5,9
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	76,2	11,6	64,6	17,5	7,6	22,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	157,3	16,6	140,7	36,1	10,8	49,8
Boshqalar	86,4	51,6	34,8	19,9	33,8	12,4


Importning eng katta ulushi, jumladan, Qora metalar (17,5 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (30,3 %) hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (49,8 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (22,8 %) va hissasiga to'g'ri keladi.


Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 36.1 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 16,5 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 17.5 % ga oshdi, ga oshdi.

MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI

(yanvar-sentabr, % va ulushi)





Hisobot davri yakunlariga koʻra, import boʻyicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 33,1 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 17,1 % ortda qoldirgan holda, birinchi oʻrinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-sentabr)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		Oʻsish surʼati, % da		Oʻrni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Xitoy Xalq Respublikasi	124956,2	144209,4	79,8	115,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	63495,7	74678,8	112,1	117,6	2	2
Turkiya	28037,5	51324,0	30,7	183,1	4	3
Qozogʻiston	42614,1	49459,6	124,2	116,1	3	4
Hindiston	8529,6	13565,1	96,9	159,0	8	5
Belarus Respublikasi	493,8	11139,5	21,6	22,5 m	33	6
Germaniya	11221,2	9136,9	71,6	81,4	7	7
Koreya Respublikasi	13008,2	8147,5	79,5	62,6	5	8
Tayvan	963,9	6131,5	82,5	6,3 m	27	9
Turkmaniston	1821,9	5828,0	84,5	3,1 m	18	10
Polsha	1744,6	5644,6	30,3	3,2 m	20	11
Fransiya	3561,5	5630,0	6,5 m	158,1	12	12
Qirgʻiz Respublikasi	5650,6	5545,4	190,0	98,1	11	13

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.	2020- y.	2021- y.
Italiya	2556,5	5244,9	56,8	2,0 m	14	14
Ukraina	1983,4	5087,4	32,3	2,5 m	15	15
Malayziya	7290,2	4767,9	165,2	65,4	9	16
Eron	1788,2	4500,4	42,7	2,5 m	19	17
Argentina	504,7	2996,8	16,8	5,9 m	32	18
Litva	1980,6	2894,6	25,6	146,1	16	19
Latviya	1467,3	2486,8	13,3	169,5	22	20

2021- yil yanvar-sentabr oyi yakuni bo'yicha Namangan viloyati tomonidan 63 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021-yil yanvar-sentabr % da)



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Hindiston va Germaniya) jami importning 78,6 % ini tashkil qiladi, bu 353513,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
boshqarmasi
Tel.:(69)-211-72-00**